

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

X.Q.NOMOZOV, SH.M. TURDIMETOV

O‘ZBEKISTON TUPROQLARI VA ULARNING EVOLUTSIYASI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan 514110000 «Tuproqshunoslik» ta’lim yo‘nalishi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2016

UO‘K: 631.4 (575.1) (075.8)
KBK 40.3 (5O‘)
N-77

**N-77 X.Q.Nomozov, Sh.M.Turdimetov. O‘zbekiston
tuproqlari va ularning evolutsiyasi. Darslik. –T.:
«Fan va texnologiya», 2016, 256 bet.**

ISBN 978–9943–11–384–8

Darslik «O‘zbekiston tuproqlari va ularning evolutsiyasi» fani dasturiga muvofiq tuzilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2016-yil 22 yanvardagi 26-sonli buyrug‘iga asosan 5141000-Tuproqshunoslik ta‘lim yonalishi talabalari usun darslik sifatida tavsiya etilgan.

Darslikda O‘zbekiston Respublikasining tabiiy-tarixiy sharoitlari, tuproqlarning o‘rganilish tarixi, sistematikasi va tasnifi, cho‘l, bo‘z va tog‘ mintaqasi asosiy tuproq tiplarining xossalari, genezisi, tarqalishi va ularning evolutsiyasi, Respublika Yer jamg‘armasi, ulardan foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

UO‘K: 631.4 (575.1) (075.8)
KBK 40.3 (5O‘)

Mas’ul muharrir:
S.Abdullayev – q.x.f.d., professor

Taqrizchilar:
X.T.Tursunov – q.x.f.d., professor;
R.Qurvontoyev – q.x.f.d., professor.

ISBN 978–9943–11–384–8

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining ma‘ruzasida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligi, murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning g‘alla va paxtadan mo‘l hosil yetishtirilayotganligi ta’kidlangan.

Qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016-yil va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturimizning muhim yo‘nalishidir.

Xo‘jalik yuritishning fermerlik tizimiga o‘tilishi munosabati bilan fermerlar uchun ijara mulki huquqi asosida ajratiladigan yer maydonlarini optimallashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshqoli don ekinlari yetishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foiz, go’sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni – 74,5 foizga ko‘paytirish, baliq yetishtirishni 2,5 martaga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Jonajon Vatanimiz O‘zbekiston hududi qariyb 45 mln. ga maydonni egallagan. Shundan sug‘oriladigan yerlar 7,50; haydaladigan lalmi yerlar 1,85; ko‘p-yillik daraxtzorlar 0,85; yaylov va pichanzorlar 50,95; tomorqa yerlari 1,32; meliorativ holati yaxshilanadigan yerlar 0,18; o‘rmonlar 2,99 % ni tashkil qiladi. Respublikamiz o‘zining ajoyib tabiati, takrorlanmas manzarasi, qazilma boyliklari, xilma-xil o‘simlik va hayvonot dunyosiga boy bo‘lgan va nihoyat saxovatli, unumdor tuproq qoplamiga ega bo‘lgan o‘lkadir.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng, o'lkamizning tabiatini o'rganish, milliy qadriyatlarimizni tiklash kabi ko'pgina ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Tarixiy manbalardan ma'lumki, ilk o'rta asrlarda yurtimizda vohalar bo'ylab, ayniqsa, azim daryo adoqlarida qator yirik sug'orish tarmoqlari qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaygan. Oqar suv sathidan birmuncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib obod etilgan. Ziroatchilikda g'allakorlik va polizchilik maydonlari kengaygan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 3-noyabrdagi 311-son qarorida qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlarida talab yuqori bo'lgan oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy yuqori samarali pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanigan holda o'qitishning ilg'or usullarini faol joriy etish, qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari pedagog kadrlari va mutaxassisleri malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

Yoshlarga Ona Yerni sevis, uning har bir qarichini muqaddas deb bilish bo'yicha tarbiya berilmoqda. Shu sababdan, «O'zbekiston tuproqlari va ularning evolutsiyasi» maxsus kursi o'quv dasturiga kiritilib, asosiy fanlardan biri sifatida o'qitilib kelinmoqda. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mualliflar ushbu fandani darslikning yangi nashrini tayyorladi. Ushbu darslikni 2004 va 2014-yillarda mualliflar tomonidan nashr etilgan «O'zbekiston tuproqlari va ularning evolutsiyasi» nomli o'quv qo'llanmalari asos sifatida foydalanildi. Darslikda keyingi-yillarda respublikamizda tuproqshunoslik sohasida olib borilgan ilmiy ishlarning natijalari ham kiritilgan.

Darslikda O'zbekiston Respublikasining tabiiy-tarixiy sharoitlari, tuproqlarning o'rganilish tarixi, tuproqlar sistematikasi va tasnifi haqida ma'lumotlar berilgan. O'zbekiston Respublikasida tarqalgan asosiy tuproq tiplarining xossa va xususiyatlari, genezisi, tarqalishi va ularning evolutsiyasi yoritilgan. Shuningdek, Respublika Yer jamg'armasi, ulardan foydalanish va muhofaza qilishga doir ma'lumotlar ham berilgan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TABIIY-TARIXIY SHAROITLARI

Geografik joylashishi. O‘zbekiston shimol va shimoli-g‘arbda Qozog‘iston, janubi-g‘arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Tojikiston, shimoli-sharqda Qirg‘iziston, janubda Afg‘oniston davlatlari bilan chegaralanadi.

Geologiyasi. Tuproq paydo qiluvchi jinslarni o‘rganishda hududning geologik tuzilishiga katta e’tibor berish lozim.

O‘zbekiston hududidagi tog‘lar, tog‘ oldi va tekisliklar geologik jihatdan qaralganda ancha yosh hisoblanadi. Tog‘larning paydo bo‘lishi, uchlamchi davrning oxiri-to‘rtlamchi davrning boshlanishidagi Alp orogenezinining kuchli tektonik harakatlari bilan bog‘liq. Uchlamchi davrda barcha hududni egallagan dengizning chekinishi ro‘y bergan. To‘rtlamchi yotqiziqlar tuproq paydo qiluvchi jinslarning asosi bo‘lib, tuproqning mayda qatlam (melkozyom) qalinligi, mexanik va mineralogik tarkibiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Yer yuzasining quruqlik va asosan tekislik qismida tarqalgan va tuproq paydo qila oladigan g‘ovak holdagi tog‘ jinslariga tuproq *ona jinslari* deyiladi. Yer yuzida tarqalgan tuproqlarning ona jinslari asosan kaynozoy (yangi hayot) erasining to‘rtlamchi davrida suv, shamol, muzliklar harakati natijasida hosil bo‘lgan har xil qalinlikdagi turli yotqiziqlardan iborat bo‘lib, ular kelib chiqishiga ko‘ra quyidagi tiplarga bo‘linadi.

Elyuviiy nurash mahsullarining nurash qobig‘ida o‘z o‘rnida to‘planishi natijasida hosil bo‘lgan yotqiziqlardir. Elyuviylar shamol, suv va muzliklar ta’sirida bir joydan ikkinchi joyga qo‘zg‘almagan bu g‘ovak holdagi jinslar har xil qalinlikda, asosan tekisliklarda uchraydi. Kimyoviy va mineralogik tarkibi hamda xossasiga ko‘ra ular dastlabki boshlang‘ich jinslardan uncha ko‘p farq qilmaydi. Elyuviiy tog‘ yon bag‘irlari va qiyaliklarda deyarli tarqalmagan. Tarkibida har xil zarra va minerallar bor.

Delyuvial yoki *delyuviiy* nurash mahsullarining yomg‘ir va erigan qor suvlari harakati ta’sirida qiyaliklarning quyi qismlarida